

O‘ZBEKISTONDA RAQOBATDOSH BOZOR SHAROITINI YARATISH YO‘LLARI

Abdumuxtorov Ulug‘bek Ilhomjon o‘g‘li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrası assistenti

ANNOTATSIYA

Tovar va moliya bozorlarida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish orqali samarali raqobat muhitini yaratish maqsadida mamlakatimizda iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish, narxni ortiqcha tartibga solishdan voz kechish va davlatning iqtisodiyotga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada mamlakatimizda monopoliyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari va raqobatdosh bozor sharoitini yaratish yo‘llari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: raqobat, monopoliya, bozor iqtisodiyoti, korxonalar, rentabellik.

Mamlakatda zamonaviy bozor iqtisodiyoti rivojlanishi uchun raqobat shakllanishi kerak bo‘lgan sohalaridagi korxonalarini saqlanib qolinishi, korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga tarkiban moslashuviga imkon beradigan xo‘jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqarish muhim o‘rin egallaydi. Bu mexanizm davlat korxonalarini iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lishini, ularning faoliyati tijoratlashgan bo‘lishini nazarda tutadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida raqobatning asosiy usuli narx bo‘lganligi sababli, narxlarni erkin qo‘yib yuborish raqobatli muhitni vujudga keltirishning asosiy talabi hisoblanadi. Har bir davlatning iqtisodiyotida raqobatni shakllantirish, uni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish manfaatlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishiga qaramay, har qanday milliy iqtisodiyotda u yoki bu darajada bozorda monopoliya ham mavjud bo‘lishi mumkin. Bu ilmiy yondashuvlarda raqobatni shakllantirish ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan bozorni tashkil etishning eng samarali shakli deb hisoblangan. Lekin mukammal raqobat shakllantirish murakkab masala hisoblanadi. Bozorni tashkil etishda demak, “monopoliya”, “raqobat” yoki “sof monopoliya”, “mukammal raqobat” kategoriyalari shakllanadi hamda ularni o‘rganish zarurati yuzaga keladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida monopoliyaga qarshi qonunlarni qabul qilish va hayotga tadbiriq etish xayotiy zaruriyatdir. Chunki, bozorni rivojlanishiga va doimiy taraqqiy etishiga erkin raqobatgina asos bo‘la oladi.

Bugungi kunda, samarali raqobat muhitini yaratish hamda tovarlar va xizmatlar bozoridagi monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish vazifalarini hal etish uchun ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Shu maqsadda, mamlakat iqtisodiyotida davlat ishtirokini kamaytirishga

qaratilgan chora-tadbirlar va bozor mexanizmlariga o'tish amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyati sohasida 86 ta ayrim litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-tamoyillari, shu jumladan 38 ta turini 16 taga birlashtirish, 25 ta turi bo'yicha rasmiylashtirish muddatlarini qisqartirish hamda 14 ta litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarni berishni markazlashtirish orqali bekor qilindi va soliq yuki kamaytirildi. Tadbirkorlik sohasi izchil rivojlanayotgani qayd etilmoqda, so'nggi uch yilning o'zidayoq amaldagi tadbirkorlik subyektlari soni 25 foizga oshdi.[1]

Ko'rilayotgan choralar mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan ko'plab oziq-ovqat (alkogolsiz ichimliklar, sharbatlar, non, non mahsulotlari, go'sht va sut mahsulotlari, qandolatchilik mahsulotlari va boshqalar) hamda ayrim nooziq-ovqat tovarlar (mebel, gilam va gilam mahsulotlari, to'qimachilik va boshqalar) bozorlarida raqobatning rivojlanishini ta'minladi. Qurilish materiallari, kabel va sim mahsulotlari, pul o'tkazmalari xizmatlari bozorida yirik kompaniyalarning monopoliyasi tugatildi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublika tovar xomashyo birjasi tovar aylanmasining 65 foizini monopol mahsulotlar tashkil etadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida so'nggi yillarda monopol korxonalar soni ikki baravardan ortiqqa kamaydi.

Bugungi kunda tovar va moliya bozorlarida davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar ustun mavqega ega bo'lib qolmoqda, masalan, monopol tashkilotlarning 80 foizi davlat ulushiga ega yoki davlat ulushiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan nazorat qilinadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlatga tegishliligi va davlat tomonidan nazorat qilinishi masalasi qonun hujjatlarida tartibga solinmaganligi tufayli davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki darajasini aniqlashda qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda. Davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar raqobat holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan davlat unitar korxonalar (DUK) va sho'ba korxonalar ko'rinishida o'zlarining nazorati ostidagi tuzilmalar tashkil etmoqda. Bugungi kunda bunday korxonalar soni 4 300 tadan ortiqni tashkil etmoqda, shu jumladan aksiyadorlik va mas'uliyati cheklangan jamiyatlari shaklida — 1 300 tadan ortiq, davlat unitar korxonasi shaklida — 1 800 tadan ortiq va ularning affillangan shaxslari — 1 100 tadan ortiq.[2]

Bozor muhitining rivojlanmaganligi va davlatning iqtisodiyotdagi haddan ziyod yuqori ishtiroki davlat ishtirokidagi alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samarasizligiga olib kelmoqda, bu esa "o'zaro kesishuvchi" subsidiyalash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiyalar, imtiyozli kreditlar taqdim etish ko'rinishidagi davlat ko'magi orqali qoplanmoqda. Moliya va kapital bozorlarida (birja, markaziy depozitariy, banklar) davlatning ishtiroki va uning vakolatlarining yuqori

konsentratsiyasi saqlanib qolmoqda, bu esa manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarmoqda va bozor mexanizmlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Bugungi kunda davlat tomonidan narxlarni tartibga solish (deklaratsiya qilish, tasdiqlash, qat’iy belgilangan yoki cheklangan narxlarni (tariflarni), tartibga solish koeffitsiyentini, ustama va rentabellikning chegaralangan darajasini o‘rnatish va narxni tartibga solishning boshqa usullari) 30 dan ortiq tovar va xizmatlarga nisbatan amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tabiiy monopoliyalar sohasida 10 xil turdagi tovar (ish, xizmat)lar tartibga solinishiga qaramasdan, amalda iste’molchilar va yetkazib beruvchilar toifalari, shuningdek, hududiy prinsipga qarab o‘rnatiladigan 137 xildagi narx darajalari orqali tartibga solinmoqda. Monopol korxonalar va tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan foydalanilayotgan xarajatlarga asoslangan narxlarni shakllantirish usuli xarajatlarga minimal foydani qo‘shish sxemasidan iborat bo‘lib, u xarajatlarning asossiz o‘shishiga undaydi, ishlab chiqarish tannarxining pasayishini rag‘batlantirmaydi, xarajatlarning o‘shishi esa, narxlar va tariflarning iste’molchilar uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri oshirish hisobiga qoplanadi

Shuni alohida ta’kidlash joiz, bugungi kunda respublikamizning iqtisodiy o‘shishini ta’minlash, milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish, investitsiyalarni jalb qilishga doir kelng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el kapitalidan foydalangan holda yangi texnologiyalar jalb qilinmoqda. Bugungi kundagi eng asosiy maqsad bu Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishdir. Ushbu tashkilotning belgilangan me’yorlarini bajarish uchun prezidentimiz tomonidan mamlakat iqtisodiyotida tubdan o‘zgartirishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizga istiqbolli investitsiyalar kiritilmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda mamlakatda kommunal xizmatlarning sifatini yanada yaxshilash maqsadida ushbu sohani ham xususiyashtirish loyihalari ishlab chiqilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda mamlakat iqtisodiyotini yanada raqobatbardosh qilish, uni turli xil risklarga chidamli qilish hozirgi o‘zbek iqtisodchilarining eng asosiy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”da
2. Qosimov A. Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishning mohiyati, uning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni. “Involta” Innovation Scientific Journal”. (Iyun 2022)
3. Rashidovna, M. R. (2022). Monopoliyaga qarshi organ faoliyatining funksional va institutsional jihatlari tadqiqi. Ta’lim fidoyilari, 18(5), 303-309